XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Xalqaro Nordik universiteti

rektori Sh. Mustafakulov

2026-yil “2” noyabr

ELEKTRON KUTUBXONA VA RAQAMLI RESURSLAR BOSHQARUVI TO‘G‘RISIDA

NIZOM

2026/2027 o‘quv yili

Universitet Kengashidan o‘tkazilganligi:

Universitet Kengashining 2026-yil 30-oktabrdagi 10-son yig‘ilishida muhokama qilingan va amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.

Toshkent – 2026

UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Nizom Xalqaro Nordik universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) elektron kutubxonasi va raqamli axborot-resurslarini shakllantirish, joylashtirish, ulardan foydalanish, xorijiy adabiyotlarni tanlash va sotib olish, resurslarga uzluksiz kirishni ta’minlash, foydalanishni monitoring qilish tartibini hamda mas’ul bo‘linmalar vakolatlarini belgilaydi.

1.2. Nizomning maqsadi – professor-o‘qituvchilar (keyingi o‘rinlarda – PO), talabalar, magistrantlar, doktorantlar va xodimlarni fan dasturlariga mos zamonaviy o‘quv va ilmiy adabiyot, shu jumladan xorijiy adabiyot bilan ta’minlash, ularga istalgan joydan va istalgan vaqtda kirish imkonini kafolatlash, foydalanish samaradorligini o‘lchash va natijalar asosida resurs bazasini rivojlantirish.

1.3. Nizom quyidagi hujjatlar asosida ishlab chiqilgan:

– O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637),

– O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni (2003-yil 11-dekabr, 560-II),

– O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni (2019-yil 2-iyul, O‘RQ-547),

– O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni (2006-yil 20-iyul, O‘RQ-42),

– O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (2011-yil 13-aprel, O‘RQ-280),

– Universitetning “Raqamli ta’lim jarayonini boshqarish tizimi (HEMIS va LMS) to‘g‘risida nizom”, “Raqamli ta’lim muhitida axborot xavfsizligi to‘g‘risida nizom”, “Axborot tizimlarini texnik qo‘llab-quvvatlash faoliyati to‘g‘risida nizom” va “Intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish va mualliflik huquqi to‘g‘risida nizom”.

1.4. Nizom Axborot-resurs markazi (keyingi o‘rinlarda – ARM), IT departamenti, kafedralar, fakultet dekanatlari, Akademik ishlar departamenti, Moliya va rejalashtirish departamenti hamda elektron kutubxonaning barcha foydalanuvchilari uchun majburiy.

1.5. Elektron kutubxona (“Nordik ARM”) – e-kutubxona.nordicuniversity.org manzilida ishlaydigan, IT departamenti tomonidan ishlab chiqilgan va Universitet serverida joylashgan platforma. Platformaning mazmun egasi – ARM, texnik egasi – IT departamenti. Platformaga havola Universitet rasmiy saytining “Ta’lim resurslari” sahifasida (nordicuniversity.org/uz/education/resources) berilgan.

1.6. Fan bo‘yicha o‘quv-uslubiy materiallar (fan resurslari) Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining markazlashgan axborot tizimi HEMIS (keyingi o‘rinlarda – HEMIS) da joylanadi va “Raqamli ta’lim jarayonini boshqarish tizimi (HEMIS va LMS) to‘g‘risida nizom” bilan tartibga solinadi. Mazkur Nizom elektron kutubxona resurslarini fan sillabuslari va HEMIS dagi fan resurslari bilan bog‘lash tartibini belgilaydi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

2.1. Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

– **elektron kutubxona** – elektron katalog, elektron kitoblar, ilmiy maqolalar, jurnallar va bosma fondga buyurtma berish xizmatlarini yagona platformada jamlagan axborot tizimi,

– **raqamli resurs** – elektron shakldagi darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiya, ilmiy maqola, jurnal, gazeta va boshqa o‘quv yoki ilmiy material,

– **bosma fond** – ARM da saqlanadigan kitob va boshqa nashrlarning bosma nusxalari,

– **metama’lumotlar** – resursni tavsiflovchi va qidiruvni ta’minlovchi majburiy maydonlar (5.4-band),

– **xorijiy adabiyot** – xorijiy tillarda (o‘zbek va qoraqalpoq tillaridan boshqa tillarda) nashr etilgan o‘quv va ilmiy adabiyot, statistik hisobda katalogdagi “til” maydoni bo‘yicha aniqlanadi,

– **faol foydalanuvchi** – hisobot oyida kamida bir marta tizimga kirgan yoki resursdan foydalangan ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchi,

– **fanlarning adabiyot bilan ta’minlanganligi** – sillabusidagi asosiy adabiyotlardan kamida bittasi elektron kutubxonada (elektron yoki bosma shaklda) mavjud bo‘lgan fanlar sonining o‘qitilayotgan fanlar umumiy soniga nisbati, foizda,

– **uzluksiz kirish** – platformaning internet orqali kuniga 24 soat, haftasiga 7 kun ishlashi va oylik ishlash vaqti 4.4-banddagi ko‘rsatkichdan kam bo‘lmasligi.

ELEKTRON KUTUBXONA FUNKSIYALARI VA FOYDALANUVCHILARI

3.1. Elektron kutubxona quyidagi funksiyalarni bajaradi (platforma, 2026-yil 16-oktabr holati):

– elektron katalogda kitob nomi bo‘yicha qidiruv, kategoriya bo‘yicha saralash va mualliflar bo‘limi,

– elektron kitoblarni onlayn o‘qish,

– bosma kitobni bron qilish va “Olib ketish” buyurtmasini berish,

– olingan kitob muddatini onlayn uzaytirish,

– foydalanuvchi profili (olingan kitoblar, muddatlar, jarimalar),

– ilmiy maqolalar, jurnal va gazetalar bo‘limlari,

– “Foydalanish tartibi” bo‘yicha bosqichma-bosqich yo‘riqnoma (3-ilova, 1-rasm).

3.2. 2026-yil 17-oktabr holatiga fondda 3 428 nom (9 915 nusxa) mavjud, shu jumladan 1 490 elektron kitob, hozir olish mumkin bo‘lgan kitoblar – 2 440, shuningdek 6 ilmiy maqola va 8 jurnal va gazeta (jami 3 442 resurs). Ko‘rsatkichlarning to‘liq tarkibi 1-ilovada keltirilgan.

3.3. Foydalanuvchilar – bakalavriat talabalari, magistrantlar, doktorantlar, PO va xodimlar. Platformada quyidagi rollar belgilanadi: foydalanuvchi, kutubxonachi (ARM xodimi – buyurtmalarni tasdiqlash, kitob berish va qabul qilish), ARM administratori (katalog va mazmun), tizim administratori (IT departamenti – texnik sozlamalar, rollar va huquqlar).

3.4. Universitet bilan o‘qish yoki mehnat munosabati tugagan shaxsning hisobi bloklanadi: talaba hisobi – dekanat ma’lumoti asosida, xodim hisobi – ishdan bo‘shaganidan keyin 3 ish kuni ichida. Bitiruvchi va ishdan bo‘shayotgan xodim ARM dan qarzdorligi yo‘qligi to‘g‘risida belgi oladi.

RESURSLARGA KIRISH VA UZLUKSIZLIKNI TA’MINLASH

4.1. Foydalanuvchi elektron kutubxonada HEMIS ID orqali ro‘yxatdan o‘tadi: shaxsi HEMIS ma’lumotlari bilan tasdiqlanadi, so‘ng profil to‘ldiriladi va telefon raqami tasdiqlanadi (3-ilova, 1-rasm). HEMIS ID ga ega bo‘lmagan xodim uchun hisob ARM so‘rovi asosida IT departamenti tomonidan 1 ish kuni ichida ochiladi.

4.2. Elektron resurslar internet orqali kuniga 24 soat, haftasiga 7 kun (24/7) istalgan joydan kompyuter yoki mobil qurilma brauzeri orqali ochiladi, Universitet binosida esa simsiz tarmoq (Wi-Fi) va kompyuter sinflari orqali ham foydalaniladi. Elektron resurslarga kirish Universitet tarmog‘i bilan cheklanmaydi.

4.3. Bosma fonddan kitob ARM ish vaqtida (ish jadvalini ARM boshlig‘i belgilaydi va platformaning “Ish jadvali” sahifasida e’lon qiladi) uch usulda olinadi: kutubxonachi orqali ID karta bilan, saytda bron qilib 24 soat ichida olib ketish, saytda “Olib ketish” buyurtmasini berib kutubxonachi tasdig‘idan keyin olish.

4.4. Texnik uzluksizlikni IT departamenti quyidagicha ta’minlaydi:

– platformaning ishlash holati har kuni tekshiriladi, ishlash vaqti (uptime) oyiga kamida 99 foiz bo‘lishi ta’minlanadi,

– ma’lumotlar bazasi va fayllar har kuni inkremental, har hafta to‘liq zaxiralanadi, zaxiralar kamida 30 kun saqlanadi, zaxira nusxalar Universitet serverining alohida zaxiralash (backup) qismida saqlanadi, tiklash sinovi chorakda kamida bir marta o‘tkaziladi,

– tiklash maqsadi: ma’lumot yo‘qotish ko‘pi bilan 24 soatlik (RPO), xizmatni tiklash ko‘pi bilan 8 soat (RTO),

– rejali texnik ishlar mashg‘ulot va imtihon vaqtidan tashqari o‘tkaziladi va kamida 1 ish kuni oldin platforma bosh sahifasida e’lon qilinadi.

4.5. Kirish muammolari va nosozliklar bo‘yicha murojaatlar IT departamentiga telefon, bevosita yoki korporativ elektron pochta orqali, shuningdek Rektor virtual qabulxonasining (rm.nordicuniversity.org) “Kutubxona” yo‘nalishi orqali qabul qilinadi, jurnalga kiritiladi va ID raqami beriladi. Ustuvorlik va muddatlar “Axborot tizimlarini texnik qo‘llab-quvvatlash faoliyati to‘g‘risida nizom” bo‘yicha belgilanadi:

– platforma to‘liq ishlamaydi – P1 (javob ko‘pi bilan 30 daqiqa, bartaraf etish ko‘pi bilan 4 soat),

– qidiruv, o‘qish yoki buyurtma funksiyasi buzilgan – P2 (javob 1 soat, bartaraf etish 1 ish kuni),

– bitta foydalanuvchining kirish yoki profil muammosi – P3 (javob 4 ish soati, bartaraf etish 3 ish kuni),

– maslahat va so‘rov – P4 (javob 1 ish kuni, bartaraf etish 5 ish kuni).

4.6. Platformadagi foydalanuvchilarga ko‘rinadigan barcha matnlar mazkur Nizomga muvofiq bo‘ladi. “Qoidalar” sahifasidagi elektron resurslar faqat Universitet tarmog‘i orqali mavjudligi va yuklab olish man etilishi haqidagi matnlar bosh sahifadagi “24/7” va “onlayn o‘qish va yuklab olish” matnlariga zid ekanligi aniqlangan, ular 4.2 va 7.3-bandlarga muvofiq bir xil qilinadi. Bosh sahifadagi barcha son ko‘rsatkichlari katalog ma’lumotlaridan avtomatik hisoblanadi, qo‘lda kiritilgan raqamlar ishlatilmaydi.

RESURSLARNI SHAKLLANTIRISH, JOYLASH VA METAMA’LUMOTLAR

5.1. Fondni to‘ldirish manbasi – kafedralar fan sillabuslaridagi asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati. Kafedra mudiri har yili 1-iyungacha keyingi o‘quv yili fanlari bo‘yicha, yangi fan joriy etilganda esa semestr boshlanishidan kamida 1 oy oldin ro‘yxatni ARM ga elektron shaklda taqdim etadi. 2026/2027 o‘quv yili uchun ro‘yxatlar Nizom kuchga kirgandan keyin 1 oy ichida taqdim etiladi.

5.2. ARM ro‘yxatni fond bilan 10 ish kuni ichida solishtiradi va har bir fan bo‘yicha mavjud, qisman mavjud va mavjud bo‘lmagan adabiyotlar ro‘yxatini kafedraga qaytaradi. Mavjud bo‘lmagan adabiyot ochiq manbadan olinadi, PO mualliflik nashri bo‘lsa muallif roziligi bilan joylanadi yoki 6.2-band tartibida sotib olinadi.

5.3. Resurs quyidagi asoslardan biri bo‘lgandagina elektron shaklda joylanadi: muallif yoki huquq egasining yozma roziligi, litsenziya shartnomasi yoki sotib olingan nusxaning litsenziya sharti, ochiq litsenziya, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan erkin foydalanish holati. Asos ARM tomonidan yozuvga biriktiriladi.

5.4. Har bir yozuv uchun majburiy metama’lumotlar: nomi, muallif(lar), til, nashr yili, nashriyot va nashr joyi, ISBN yoki ISSN (mavjud bo‘lsa), kategoriya (resurs turi), fan sohasi, tegishli fan va kafedra, shakli (bosma, elektron), kirish rejimi (onlayn o‘qish yoki yuklab olishga ruxsat), kalit so‘zlar. Til, kategoriya, fan sohasi va kirish rejimi qiymatlari erkin yozilmaydi – yagona ro‘yxatdan tanlanadi. Yagona ro‘yxatlarni ARM tasdiqlaydi, IT departamenti ularni platformada majburiy maydon va tanlov ro‘yxati sifatida sozlaydi.

5.5. Elektron yozuv fayl biriktirilgandan keyingina e’lon qilinadi. Fayl matnli qatlamga ega PDF yoki brauzerda ochiladigan boshqa formatda bo‘ladi.

5.6. ARM har o‘quv yili boshida fond dolzarbligini ko‘rib chiqadi: sillabuslardan chiqarilgan, eskirgan yoki yangi nashri chiqqan adabiyotlar bo‘yicha kafedra bilan birgalikda almashtirish yoki arxivga o‘tkazish qarori qabul qilinadi.

5.7. PO fan sillabusidagi asosiy adabiyotlar uchun HEMIS dagi fan resurslarida elektron kutubxonadagi yozuvga havola beradi, mustaqil ta’lim topshiriqlarini elektron kutubxona resurslariga tayangan holda tuzadi. Havolalar mavjudligini Akademik ishlar departamenti semestr boshida tekshiradi.

XORIJIY ADABIYOTLARNI TANLASH VA ULARDAN FOYDALANISH

6.1. Xorijiy adabiyot quyidagi mezonlar bo‘yicha tanlanadi:

– fan sillabusidagi mavzular va o‘quv natijalariga mosligi,

– dolzarbligi: asosan so‘nggi 5 yilda, fundamental darsliklar uchun so‘nggi 10 yilda nashr etilganligi (klassik asarlar kafedra asoslagan holda),

– nashriyotning xalqaro tan olinganligi yoki manbaning taqrizlanganligi,

– tili va murakkabligining talabalar til darajasiga mosligi,

– elektron shakl mavjudligi, litsenziya sharti, narxi va talabalar soniga mutanosib nusxalar soni.

6.2. Xorijiy adabiyotga buyurtma quyidagi tartibda bajariladi:

– kafedra fan o‘qituvchilari takliflarini kafedra majlisida ko‘rib chiqadi va 2-ilovadagi shaklda ARM ga yuboradi,

– ARM 10 ish kuni ichida adabiyotning fondda, ochiq manbalarda yoki obuna bazalarida mavjudligini, narxini va litsenziya shartini aniqlaydi,

– ochiq manbada mavjud adabiyotni ARM 5 ish kuni ichida katalogga kiritadi,

– sotib olish zarur bo‘lsa, ARM yig‘ma talabnoma tayyorlaydi, u Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor O. Qo‘ysinov bilan kelishiladi va Moliya va rejalashtirish departamenti tomonidan xarid rejasiga kiritiladi,

– olingan adabiyot 10 ish kuni ichida katalogga kiritiladi va buyurtma bergan kafedraga xabar qilinadi.

6.3. 2026-yil 17-oktabr holatiga fonddagi xorijiy adabiyot ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Fonddagi xorijiy adabiyot (2026-yil 17-oktabr holati)

Ko‘rsatkich	Qiymat
Xorijiy tillardagi nomlar, jami	1 335 (fondning 38,9 foizi)
shu jumladan ingliz tilida	832
rus tilida	428
nemis tilida	52
fin tilida	22
turk tilida	1
Xorijiy nomlardan darslik va o‘quv adabiyotlari	1 192
2017-yil va undan keyin nashr etilgan xorijiy nomlar	626 (46,9 foiz)
shu jumladan 2022-yil va undan keyin	213 (16,0 foiz)
Elektron nusxasi joylangan xorijiy nomlar	681 (51,0 foiz)

Manba: elektron kutubxona katalogi. Birinchi qatordagi foiz fonddagi jami nomlarga, qolganlari xorijiy nomlarga nisbatan hisoblangan.

6.4. Xalqaro ilmiy bazalarga obuna: Web of Science, ProQuest, EBSCO Business Source va Springer Link bazalariga kirish Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi bilan tuzilgan 2025-yil 5-sentabrdagi 13-son shartnoma asosida ta’minlangan, bazalar Universitet tarmog‘idan IP manzil

bo‘yicha avtomatik ochiladi, foydalanish statistikasini Milliy kutubxona yuritadi. Shartnoma muddati 2026-yil 30-sentabrda tugagan. ARM obunani tiklash talabnomasini 2026-yil noyabrda tayyorlaydi, u Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor bilan kelishiladi, mablag‘ Moliyaviy ishlar bo‘yicha prorektor tomonidan ajratiladi, obuna 2026-yil 31-dekabrgacha tiklanadi. Obuna bo‘lmagan bazalar o‘rnida ochiq kirishli nashrlar va Google Scholar orqali topiladigan manbalardan foydalaniladi. ARM obunalar ro‘yxatini va ularga kirish yo‘riqnomasini platformada e’lon qiladi.

6.5. Xorijiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmasi LMS (distance.nordicuniversity.org) dagi “Xalqaro ilmiy bazalar bilan ishlash maxsus malaka oshirish kursi” (XIBIT_1001) orqali rivojlantiriladi: kurs 8 mavzuni (Kirish, ORCID, Google Scholar, LinkedIn, ResearchGate, Academia.edu, Scopus va Web of Science, Webometrics) videodarslar va SCORM paketlari bilan qamraydi, 2026-yil 16-oktabr holatiga ishtirokchilari – 180 nafar. ARM har semestrda kamida bir marta talabalar va PO uchun xorijiy bazalar va elektron kutubxonadan foydalanish bo‘yicha mashg‘ulot o‘tkazadi.

6.6. Xorijiy adabiyotning bilim va kompetensiyalarni shakllantirishga xizmati quyidagicha ta’minlanadi:

– fan sillabusida xorijiy asosiy yoki qo‘shimcha adabiyotga tayanadigan mavzular va topshiriqlar (manba tahlili, esse, adabiyotlar sharhi) ko‘rsatiladi,

– PO HEMIS dagi fan resurslarida elektron kutubxonadagi tegishli yozuvga havola beradi,

– kurs ishi va bitiruv malakaviy ishida xorijiy manbalardan foydalanish talabi kafedra uslubiy ko‘rsatmasida belgilanadi,

– natijada talabalarda xorijiy tilda manba bilan ishlash, xalqaro tajribani tahlil qilish va akademik yozuv kompetensiyalari shakllanadi.

6.7. ARM har semestr yakunida har bir kafedraga xorijiy adabiyotdan foydalanish ma’lumotini beradi: fan bo‘yicha xorijiy nomlar soni, ko‘rishlar va yuklab olishlar, berilgan bosma nusxalar, semestr davomida foydalanilmagan nomlar. Kafedra ma’lumotni kafedra majlisida ko‘rib chiqadi va foydalanilmagan adabiyot bo‘yicha chora (sillabusga kiritish, talabalarga tanishtirish, almashtirish) belgilaydi.

FOYDALANISH QOIDALARI

7.1. Bosma kitob 8 kunga beriladi, foydalanuvchida bir vaqtda 5 tagacha kitob bo‘lishi mumkin, muddat platformada onlayn 2 martagacha uzaytiriladi.

7.2. Muddati o‘tgan har bir kun uchun 3 000 so‘m jarima hisoblanadi va foydalanuvchi profilida aks ettiriladi.

7.3. Barcha elektron resurslar ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilarga onlayn o‘qish uchun ochiq. Yuklab olishga faqat kirish rejimi “yuklab olishga ruxsat” deb belgilangan (ochiq litsenziyali yoki huquq egasi ruxsat bergan) resurslar uchun ruxsat beriladi, qolganlari faqat onlayn o‘qiladi.

7.4. Foydalanuvchi resurslardan faqat ta’lim va ilmiy maqsadda foydalanadi, hisob ma’lumotlarini boshqa shaxsga bermaydi, resurslarni tijorat maqsadida yoki ruxsatsiz tarqatmaydi. Qoidabuzarlik aniqlanganda hisob ARM

boshlig‘i qarori bilan 30 kungacha cheklanadi va holat Universitetning ichki tartib qoidalariga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

MA’LUMOTLAR SIFATI, XAVFSIZLIK VA MUALLIFLIK HUQUQI

8.1. ARM har oy katalogda majburiy metama’lumotlari to‘liq yozuvlar ulushini tekshiradi, IT departamenti platformada majburiy maydonlari to‘ldirilmagan yozuv saqlanmasligini ta’minlaydi.

8.2. Platformadagi huquqlar rolga asoslanib, eng kam huquq tamoyili bo‘yicha beriladi. Parol kamida 8 belgidan iborat bo‘lib, harf va raqamni o‘z ichiga oladi, administrator hisoblari uchun ikki bosqichli autentifikatsiya qo‘llaniladi (platforma imkon bergan holda), administrator huquqlari ro‘yxati yarim yilda bir marta qayta ko‘rib chiqiladi, loglar kamida 6 oy saqlanadi. Boshqa talablar “Raqamli ta’lim muhitida axborot xavfsizligi to‘g‘risida nizom” bilan belgilanadi.

8.3. Foydalanuvchining HEMIS dan olingan ma’lumotlari va telefon raqami faqat kutubxona xizmati maqsadida ishlatiladi va uchinchi shaxslarga berilmaydi. Statistik hisobotlarda shaxsni aniqlash imkonini beruvchi ma’lumot ko‘rsatilmaydi.

8.4. Mualliflik huquqi buzilishi haqida xabar olinganda ARM resursni 1 ish kuni ichida vaqtincha yopadi, 5 ish kuni ichida joylash asosini tekshiradi va resursni tiklash yoki o‘chirish qarorini qabul qiladi. Huquqlar bo‘yicha nizolar “Intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni himoya qilish va mualliflik huquqi to‘g‘risida nizom” asosida ko‘riladi.

8.5. 2026-yil 17-oktabr holatiga aniqlangan nomuvofiqliklar 2-jadvaldagi muddatlarda bartaraf etiladi.

2-jadval.

Katalog va platformadagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish

Nomuvofiqlik	Chora	Mas’ul	Muddat
“Qoidalar”, “Ish jadvali” sahifalari, sahifa pastki qismi va bosh sahifa matnlari bir-biriga zid (kirish rejimi, ish vaqti, “Yangi kitoblar – 100+” ko‘rsatkichi)	Matnlar 4.2 va 7.3-bandlarga moslashtiriladi, yozuvlarga kirish rejimi belgilanadi	ARM, IT departamenti	2026-yil 15-noyabr
Katalogdagi “til” maydoni 26 xil shaklda yozilgan	Qiymatlar yagona ro‘yxatga keltiriladi, maydon tanlov ro‘yxatiga aylantiriladi	IT departamenti, ARM	2026-yil 30-noyabr
1 490 elektron yozuvdan 131 tasiga fayl biriktirilmagan	Fayl biriktiriladi yoki yozuv bosma shakl deb qayta belgilanadi	ARM	2026-yil 31-dekabr
Kategoriyalar 2 ta (Darslik – 2 511, Badiiy – 917)	Resurs turlari va fan sohalari bo‘yicha tasnif joriy etiladi	ARM, kafedralar	2027-yil 1-fevral

MAS’ULLAR

9.1. Nizom ijrosi bo‘yicha mas’ullar 3-jadvalda belgilanadi.

3-jadval.

Mas’ullar va vazifalar

Mas’ul	Vazifalar
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor O. Qo‘ysinov	ARM faoliyati ustidan umumiy nazorat, xorijiy adabiyot va obunalar xarid talabnomalarini kelishish
ARM (boshlig‘i Sh. Ibrohimova)	Fond, katalog va metama’lumotlar sifati, resurslarni joylash, buyurtmalar, foydalanuvchilarga xizmat, oylik monitoring, kafedralarga semestr ma’lumoti, mashg‘ulotlar
IT departamenti (boshlig‘i X. Topilov)	Platformani texnik yuritish va rivojlantirish, server, zaxiralash va tiklash sinovi, ishlash vaqti monitoringi, hisoblar, statistika eksporti, texnik yordam
Kafedra mudirlari	Adabiyotlar ro‘yxati, xorijiy adabiyot buyurtmasi, adabiyotni sillabus va topshiriqlarga bog‘lash, foydalanish ma’lumotini kafedra majlisida ko‘rish
Akademik ishlar departamenti (boshlig‘i O. Raximberdiyev)	Sillabuslar va HEMIS dagi fan resurslarida adabiyotlar hamda elektron kutubxona havolalari mavjudligini nazorat qilish
Moliya va rejalashtirish departamenti	Xarid rejasi, obuna va litsenziya to‘lovlari
Fakultet dekanatlari (E. Umarov, Z. Xamidova)	Birinchi kurs talabalarini platforma bilan tanishtirish, bitiruvchilar qarzdorligini tekshirish

MONITORING VA HISOBOT

10.1. ARM IT departamenti bilan birgalikda har oyning 5-sanasigacha o‘tgan oy bo‘yicha monitoring ma’lumotini tayyorlaydi: ro‘yxatdan o‘tgan va faol foydalanuvchilar (toifalar bo‘yicha), ko‘rishlar va yuklab olishlar, berilgan, bron qilingan va uzaytirilgan kitoblar, muddati o‘tgan kitoblar, yangi qo‘shilgan nomlar, fan sohalari bo‘yicha foydalanish, ishlash vaqti va texnik murojaatlar. Boshlang‘ich qiymatlar (boshqaruv paneli, 2026-yil 17-oktabr holati): platformada 1 050 nafar talaba va 70 nafar xodim ro‘yxatdan o‘tgan, 2025-yil 5-dekabrdan buyon 386 ta kitob so‘rovi yuborilgan, 324 ta kitob berilgan, shundan 260 tasi qaytarilgan. Ko‘rishlar va yuklab olishlar hisoblagichi 2026-yil dekabrda joriy etiladi.

10.2. Asosiy ko‘rsatkichlar va maqsadli qiymatlar 4-jadvalda belgilanadi.

4-jadval.

Monitoring ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Joriy qiymat (2026-yil 17-oktabr)	Maqsadli qiymat	Davriylik
Platformaning ishlash vaqti	oylik o‘lchov joriy etiladi	oyiga kamida 99 foiz	oylik
Murojaatlarni belgilangan muddatda hal etish	murojaatlar jurnali bo‘yicha	kamida 90 foiz	oylik
Fayl biriktirilgan elektron yozuvlar ulushi	91,2 foiz (1 490 tadan 1 359 tasi)	100 foiz	oylik
Majburiy metama’lumotlari to‘liq yozuvlar ulushi	birinchi o‘lchov 2026-yil noyabrda	kamida 95 foiz	oylik
Fanlarning adabiyot bilan ta’minlanganligi	birinchi o‘lchov 2026/2027 o‘quv yili kuzgi semestri yakunida	100 foiz	semestr
2017-yil va undan keyin nashr etilgan xorijiy nomlar ulushi	46,9 foiz	2027/2028 o‘quv yilida kamida 55 foiz	yillik
Foydalanuvchi qoniqishi (5 ballik)	birinchi so‘rov 2027-yil aprel–mayda	kamida 4 ball	yillik

10.3. Foydalanuvchilar so‘rovi har yili aprel–may oylarida platforma orqali o‘tkaziladi: resurslar yetarliligi, xorijiy adabiyot, kirish qulayligi va texnik muammolar baholanadi. Natijalar yillik yakunlarga kiritiladi.

10.4. ARM va IT departamenti har yili 15-sentabrgacha o‘tgan o‘quv yili bo‘yicha elektron kutubxona faoliyati yakunlarini tayyorlaydi. Yakunlar “Raqamli ta’lim axborot tizimlari faoliyati to‘g‘risida yillik hisobot” tarkibida Universitet Kengashida ko‘rib chiqiladi, Kengash qarori bilan belgilangan choralar ijrosi keyingi yillik hisobotda aks ettiriladi.

10.5. Monitoring natijalari asosida xarid rejasi, obunalar, mashg‘ulot mavzulari va platforma funksiyalari qayta ko‘rib chiqiladi.

YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Mazkur Nizom Universitet Kengashi qarori bilan ma’qullanib, rektor buyrug‘i bilan tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11.2. Mazkur Nizom kuchga kirgan kundan e’tiboran 2026-yil may oyida tayyorlangan “Elektron kutubxona faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida nizom” va “Elektron kutubxona va raqamli resurslar boshqaruvi to‘g‘risida nizom”ning avvalgi tahriri qo‘llanilmaydi.

11.3. Nizom Universitet rasmiy saytining me’yoriy hujjatlar bo‘limida, repozitoriyda va elektron kutubxona platformasida e’lon qilinadi.

11.4. Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar ARM yoki IT departamenti taklifi bilan Universitet Kengashi qarori asosida kiritiladi.

IT departamenti boshlig‘i **X. Topilov**

Axborot-resurs markazi boshlig‘i **Sh. Ibrohimova**

1-ilova

ELEKTRON KUTUBXONA KO‘RSATKICHLARI (2026-yil 17-oktabr holati)

Ko‘rsatkich	Qiymat
Fond tarkibi	
Jami nomlar (kitoblar)	3 428
Jami resurslar (kitoblar, ilmiy maqolalar, jurnal va gazetalar)	3 442
Mavjud nusxalar	9 915
Elektron kitoblar	1 490 (fayl biriktirilgan – 1 359)
Hozir olish mumkin bo‘lgan kitoblar	2 440
Ilmiy maqolalar	6
Jurnal va gazetalar	8
Kategoriyalar	2 (Darslik – 2 511, Badiiy – 917)
Til bo‘yicha (nomlar)	
O‘zbek tilida	taxminan 2 090
Ingliz tilida	832
Rus tilida	428
Nemis tilida	52
Fin tilida	22
Turk va qoraqalpoq tillarida, til ko‘rsatilmagan	4
Nashr yili bo‘yicha (nomlar)	
2022-yil va undan keyin	1 157
2017–2021-yillar	1 088
2010–2016-yillar	600
2010-yildan oldin	438
Nashr yili ko‘rsatilmagan	145
Foydalanish shartlari	
Elektron resurslarga kirish	24/7, internet orqali
Ro‘yxatdan o‘tish	HEMIS ID orqali
ARM ish vaqti (bosma fond)	ARM ish jadvali bo‘yicha, platformaning “Ish jadvali” sahifasida e’lon qilinadi (sahifalardagi farqli qiymatlar 2-jadval bo‘yicha tuzatiladi)
Kitob berish	8 kunga, bir vaqtda 5 tagacha, 2 martagacha onlayn uzaytirish
Jarima	muddati o‘tgan har kun uchun 3 000 so‘m

Manba: e-kutubxona.nordicuniversity.org platformasi. Til bo‘yicha qiymatlar “til” maydoni normallashtirilgunga qadar taxminiy.

2-ilova

XORIJIY ADABIYOTGA BUYURTMA (SHAKL)

Kafedra: _____ Sana: 20__-yil “__” _____

Ta’lim dasturi: _____ O‘quv yili: 20__/20__

№	Fan nomi, semestr	Adabiyot: muallif, nomi, nashriyot, yili, ISBN, tili, turi (asosiy, qo‘shimcha), shakli (bosma, elektron), nusxa soni	Asoslash: sillabusdagi mavzu, o‘quv natijasi, talabalar soni
1			
2			
3			

Kafedra majlisi bayonnomasi: 20__-yil “__” _____dagi __-son.

Kafedra mudiri _____ _____


ARM XULOSASI

Natija	Belgi va izoh
Fondda mavjud (inventar raqami, nusxalar soni)	
Ochiq manbada mavjud, katalogga kiritildi (sana)	
Obuna bazasida mavjud (baza nomi)	
Sotib olish talabnomasiga kiritildi (sana, taxminiy narx)	
Katalogga kiritildi, kafedraga xabar qilindi (sana)	

Axborot-resurs markazi boshlig‘i _____ _____

3-ilova

ELEKTRON KUTUBXONA PLATFORMASI



1-rasm. “Foydalanish tartibi” sahifasi: HEMIS ID orqali ro‘yxatdan o‘tish, profilni to‘ldirish va telefon raqamini tasdiqlash (e-kutubxona.nordicuniversity.org, 2026-yil 16-oktabr holati)



2-rasm. Bosh sahifadagi resurs turlari: katalog toifalari, barcha kitoblar, elektron kitoblar, kutubxonada mavjud kitoblar, ilmiy maqolalar, jurnal va gazetalar (e-kutubxona.nordicuniversity.org, 2026-yil 16-oktabr holati)